



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIMLARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмурадовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLIH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	



MOLIYAVIY INVESTITSİYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODELİ ASOSIDA HISOBGA OLIŞH METODİKASI

Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy investitsiyalarning qadrsizlanishini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS 9 «Moliyaviy instrumentlar»)ning kutilayotgan kredit zararlari (Expected Credit Loss — ECL) modeli asosida tan olish va hisobga olish metodikasi tadqiq etilgan. Milliy hisob amaliyotida qadrsizlanishni baholashda yuzaga kelgan zarar modelidan foydalanish elementlari saqlanib qolayotgani, bu esa risklarni kech aks ettirishga olib kelayotgani asoslangan. Tadqiqot natijasida uch bosqichli ECL zaxirasini PD (defolt ehtimoli), LGD (defolt sodir bo'lganda zarar ulushi) va EAD (defolt paytidagi ekspozitsiya) parametrlari asosida hisoblashda O'zbekiston makroiqtisodiy omillarini (inflyatsiya, YalM o'sish sur'ati, valyuta kursi) integratsiya qiluvchi metodika ishlab chiqilgan. Taklif etilgan metodika risklarni o'z vaqtida tan olish va aktivlarning real qiymatini aks ettirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: moliyaviy investitsiyalar, MHXS 9, qadrsizlanish, kutilayotgan kredit zararlari, ECL, PD, LGD, EAD, makroiqtisodiy omillar, buxgalteriya hisobi, audit.

Abstract. This article examines the methodology for recognizing and accounting for the impairment of financial investments based on the Expected Credit Loss (ECL) model under International Financial Reporting Standard IFRS 9 "Financial Instruments". It is substantiated that elements of the incurred loss model for impairment assessment remain in national accounting practice, which may result in delayed recognition of risks. The study develops a methodology for calculating the three-stage ECL allowance based on PD (Probability of Default), LGD (Loss Given Default), and EAD (Exposure at Default) parameters while integrating Uzbekistan's macroeconomic factors, including inflation, GDP growth rate, and exchange rate fluctuations. The proposed methodology enables timely recognition of risks and a more accurate reflection of the actual value of assets.

Keywords: financial investments, IFRS 9, impairment, expected credit losses, ECL, PD, LGD, EAD, macroeconomic factors, accounting, audit.

Аннотация. В статье исследуется методика признания и учета обесценения финансовых инвестиций на основе модели ожидаемых кредитных убытков (Expected Credit Loss — ECL) в соответствии с Международным стандартом финансовой отчетности (МСФО 9 «Финансовые инструменты»). Обосновано, что в национальной практике учета сохраняются элементы модели понесенных убытков при оценке обесценения, что может приводить к несвоевременному отражению рисков. В результате исследования разработана методика расчета трехэтапного резерва ECL на основе параметров PD (вероятность дефолта), LGD (доля убытка при дефолте) и EAD (экспозиция при дефолте) с интеграцией макроэкономических факторов Узбекистана, включая инфляцию, темпы роста ВВП и изменение валютного курса. Предложенная методика позволяет своевременно признавать риски и более точно отражать реальную стоимость активов.

Ключевые слова: финансовые инвестиции, МСФО 9, обесценение, ожидаемые кредитные убытки, ECL, PD, LGD, EAD, макроэкономические факторы, бухгалтерский учет, аудит.

KIRISH

Moliyaviy investitsiyalarning qadrsizlanishini o'z vaqtida va to'g'ri tan olish moliyaviy hisobotning ishonchligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Jahon moliyaviy inqirozlari tajribasi shuni ko'rsatdiki, moliyaviy aktivlarning qadrsizlanishini kech tan olish subyektlarning moliyaviy holatini sun'iy ravishda yaxshi ko'rsatishga va investorlar qarorlarining axborot bilan ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aynan shu bois Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha kengash MHXS 9 «Moliyaviy instrumentlar»



standartida qadrsizlanishni tan olishning mutlaqo yangi — kutilayotgan kredit zararlari (Expected Credit Loss — ECL) modelini joriy etdi [1].

ECL modeli qadrsizlanishni aktiv bo'yicha zarar haqiqatda yuzaga kelishini kutmasdan, kelajakda kutilayotgan zararlari asosida oldindan tan olishni talab qiladi. Bu esa risklarni erta aniqlash va moliyaviy aktivlarning real qiymatini aks ettirish imkonini beradi. Vaholanki, O'zbekistonning milliy hisob amaliyotida moliyaviy investitsiyalarning qadrsizlanishi hana asosan yuzaga kelgan zarar (incurred loss) modeli asosida, ya'ni zarar to'g'risida obyektiv dalil mavjud bo'lgandagina tan olinmoqda. Ushbu yondashuv MHXS 9 talablarida nazarda tutilgan ilg'or baholash tamoyillarini to'liq qamrab olmaydi hamda risklarni o'z vaqtida aks ettirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, ECL zaxirasini hisoblashda qo'llaniladigan PD, LGD va EAD parametrlari ko'pincha rivojlangan bozorlar statistikasi asosida aniqlanib, O'zbekistonning makroiqtisodiy sharoiti — nisbatan yuqori inflyatsiya, valyuta kursi tebranishlari, iqtisodiy o'sish sur'atlari — e'tiborga olinmaydi. Bu esa zaxira summasini hisoblashda milliy sharoitga xos risk omillarini qo'shimcha hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois moliyaviy investitsiyalarning qadrsizlanishini ECL modeli asosida, milliy makroiqtisodiy omillarni hisobga olgan holda tan olish metodikasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — aynan shunday metodikani ilmiy asoslab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kutilayotgan kredit zararlari modeli va uning amaliy tatbiqi masalalari jahon moliyaviy hisob amaliyotida keng o'rganilgan. MHXS 9ning qadrsizlanish bo'yicha talablari IFRS Foundation hujjatlarida batafsil bayon etilgan [1]. «Katta to'rtlik» auditorlik kompaniyalari (KPMG, Deloitte, PwC, EY) ECL modelini amaliyotga tatbiq etish, PD, LGD va EAD parametrlarini baholash bo'yicha uslubiy qo'llanmalar nashr etgan [2; 3]. Ushbu qo'llanmalarda oldinga qaratilgan (forward-looking) axborotni, jumladan, makroiqtisodiy prognozlarni ECL hisobiga integratsiya qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Kredit riski va defolt ehtimolini modellashtirish masalalari xorijiy olimlar — A. Damodaran, Z. Bodie va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan [4; 5]. MDH mamlakatlari va O'zbekiston olimlari (A. D. Sheremet, V. P. Suys va boshqalar) moliyaviy aktivlar hisobi va auditi masalalarini o'rgangan [6]. Shu bilan birga, moliyaviy investitsiyalarning qadrsizlanishini ECL modeli asosida, aynan O'zbekiston makroiqtisodiy omillarini integratsiya qilgan holda hisobga olish metodikasi milliy iqtisodiyot kontekstida yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu esa mazkur masalani mustaqil tadqiq etishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, guruhlash hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. ECL zaxirasini hisoblash metodikasini ishlab chiqishda MHXS 9 «Moliyaviy instrumentlar» standartining qadrsizlanish bo'yicha talablari asos qilib olingan. Makroiqtisodiy omillarni integratsiya qilishda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan. Metodikaning amaliy tatbiqi «O'zbektelekom» AK va «O'zbekiston pochta» AJning moliyaviy investitsiyalari misolida ko'rib chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

MHXS 9ning qadrsizlanish modeli moliyaviy aktivlarni kredit riskining o'zgarish darajasiga ko'ra uch bosqichga ajratishni nazarda tutadi. Ushbu uch bosqichli yondashuv ECL zaxirasini hisoblashning asosini tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval
MHXS 9 bo'yicha qadrsizlanishning uch bosqichli modeli¹

Bosqich	Aktivning holati	ECL hisoblash gorizonti	Foiz daromadi bazasi
1-bosqich	Kredit riski dastlabki tan olishdan keyin sezilarli oshmagan (normal)	12 oylik kutilayotgan kredit zarari	Umumiy balansli qiymat
2-bosqich	Kredit riski sezilarli oshgan, lekin hali qadrsizlanmagan	Butun muddat davomidagi (lifetime) ECL	Umumiy balansli qiymat
3-bosqich	Aktiv qadrsizlangan (defolt yuzaga kelgan)	Butun muddat davomidagi (lifetime) ECL	Sof balansli qiymat

¹ Manba: muallif tomonidan MHXS 9 talablari asosida tuzilgan.



1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, aktivning kredit riski oshgan sari ECL zaxirasi 12 oylik zarardan butun muddat davomidagi zararga o'tadi. Uch bosqichli yondashuv riskning o'sishini bosqichma-bosqich aks ettirish va zaxirani real risk darajasiga muvofiqlashtirish imkonini beradi.

ECL modeli taklif etgan yondashuvning ustunligini yaqqolroq ko'rsatish uchun uni milliy amaliyotda qo'llanilayotgan yuzaga kelgan zarar modeli bilan qiyoslash maqsadga muvofiq (2-jadval).

2-jadval

Qadrsizlanishni tan olishda yuzaga kelgan zarar va ECL modellarining qiyosiy tahlili²

Mezon	Yuzaga kelgan zarar modeli	ECL modeli (MHXS 9)
Tan olish asosi	Zarar to'g'risida obyektiv dalil	Kelajakda kutilayotgan zarar
Tan olish vaqti	Zarar yuzaga kelgandan keyin	Dastlabki tan olish paytidan
Axborot bazasi	O'tmishdagi ma'lumotlar	O'tmish va oldinga qaratilgan prognoz
Makroiqtisodiy omillar	Hisobga olinmaydi	Integratsiya qilinadi
Riskni aks ettirish	Kech	O'z vaqtida
MHXS 9 ga muvofiqligi	Muvofiq emas	To'liq muvofiq

2-jadvaldan ko'rinadiki, ECL modeli qadrsizlanishni tan olishda oldinga qaratilgan axborotga tayanadi va makroiqtisodiy omillarni hisobga oladi. Bu esa risklarni o'z vaqtida aks ettirish va moliyaviy hisobotning ishonchligini oshirish imkonini beradi. Yuzaga kelgan zarar modeli esa riskni faqat u yuzaga kelgandan keyin tan olgani sababli moliyaviy holatning real holatni to'liq aks ettirmasligiga olib kelishi mumkin.

Kredit riskining sezilarli oshishini baholash. Moliyaviy investitsiyani 1-bosqichdan 2-bosqichga o'tkazishda kredit riskining sezilarli oshishi (Significant Increase in Credit Risk — SICR) mezoni hal qiluvchi ahamiyatga ega. SICRni baholashda quyidagi omillar hisobga olinadi: emitentning kredit reytingining pasayishi; to'lovlar bo'yicha kechikishlar (odatda 30 kundan ortiq); moliyaviy ko'rsatkichlarning yomonlashuvi; makroiqtisodiy sharoitning salbiy o'zgarishi. Agar dastlabki tan olishdan keyin kredit riski sezilarli oshgan bo'lsa, aktiv 2-bosqichga o'tkaziladi va unga butun muddat davomidagi ECL qo'llaniladi. Defolt yuzaga kelganda (odatda 90 kundan ortiq kechikish) aktiv 3-bosqichga o'tkaziladi.

Kutilayotgan kredit zarari (ECL) uch asosiy parametr asosida hisoblanadi: defolt ehtimoli (Probability of Default — PD), defolt sodir bo'lganda zarar ulushi (Loss Given Default — LGD) hamda defolt paytidagi ekspozitsiya (Exposure at Default — EAD). ECL ushbu uch parametrning ko'paytmasi sifatida aniqlanadi:

$$ECL = PD \times LGD \times EAD$$

bunda: PD — qarzdorning belgilangan davr ichida majburiyatlarini bajarmaslik (defolt) ehtimoli; LGD — defolt sodir bo'lgan taqdirda qaytarilmaydigan mablag' ulushi; EAD — defolt paytida qarzdor zimmasidagi qoldiq ekspozitsiya (moliyaviy aktivning balans qiymati).

Parametrlarni baholash. PD parametri emitentning kredit reytingi, tarixiy defolt statistikasi hamda oldinga qaratilgan makroiqtisodiy prognozlar asosida aniqlanadi. 1-bosqich uchun 12 oylik PD, 2- va 3-bosqichlar uchun butun muddat davomidagi PD qo'llaniladi. LGD parametri garov ta'minoti, qarzdorning ustuvorlik darajasi va tarixiy tiklash ko'rsatkichlari asosida baholanadi; ta'minotsiz korporativ obligatsiyalar uchun u odatda 40–60 foiz oralig'ida bo'ladi. EAD parametri esa moliyaviy aktivning defolt paytidagi kutilayotgan balans qiymatini ifodalaydi va amortizatsiya qiymati bo'yicha baholanuvchi aktivlar uchun ularning amortizatsiya qiymatiga teng bo'ladi.

Moliyaviy investitsiyalarning qadrsizlanishini milliy sharoitda to'g'ri baholash uchun PD va LGD parametrlarini O'zbekistonning makroiqtisodiy omillari asosida tuzatish zarur. Tadqiqotda defolt ehtimolini makroiqtisodiy o'zgaruvchilar asosida tuzatuvchi quyidagi yondashuv taklif etiladi:

$$PD_a = PD_0 \times K_m$$

bunda: PD_a — tuzatilgan (makroiqtisodiy) defolt ehtimoli; PD_0 — bazaviy (statistik) defolt ehtimoli; K_m — makroiqtisodiy tuzatish koeffitsiyenti. Tuzatish koeffitsiyenti K_m inflyatsiya, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'ati va valyuta kursi o'zgarishi kabi omillar asosida aniqlanadi. Iqtisodiy o'sish sur'ati pasayganda va inflyatsiya yoxud valyuta kursi keskin oshganda tuzatish koeffitsiyenti oshadi, bu esa defolt ehtimolini va demak, ECL zaxirasini oshiradi.

3-jadvalda ECL zaxirasini hisoblashda hisobga olinishi taklif etilayotgan asosiy makroiqtisodiy omillar va ularning ta'sir yo'nalishi keltirilgan.

² Manba: muallif ishlanmasi.



3-jadval
ECL zaxirasini hisoblashda hisobga olinadigan makroiqtisodiy omillar³

Makroiqtisodiy omil	Ko'rsatkich	Defolt ehtimoliga ta'siri
Inflyatsiya darajasi	Iste'mol narxlari indeksi (INI)	Oshishi PD ni oshiradi
Iqtisodiy o'sish	YalM real o'sish sur'ati	Pasayishi PD ni oshiradi
Valyuta kursi	So'mning AQSh dollariga kursi	Keskin o'zgarishi PD ni oshiradi
Foiz stavkasi	Markaziy bank asosiy stavkasi	Oshishi PD ni oshiradi

Taklif etilayotgan metodika bo'yicha ECL zaxirasi quyidagi ketma-ketlikda hisoblanadi. Birinchi bosqichda moliyaviy investitsiya kredit riski darajasiga ko'ra uch bosqichdan biriga kiritiladi. Ikkinchi bosqichda bazaviy PD, LGD va EAD parametrlari aniqlanadi. Uchinchi bosqichda PD parametri makroiqtisodiy tuzatish koeffitsiyenti orqali tuzatiladi. To'rtinchi bosqichda tuzatilgan parametrlar asosida ECL zaxirasi hisoblanadi. Beshinchi bosqichda hisoblangan zaxira buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettiriladi.

Amaliy misol. Faraz qilaylik, subyekt balansida nominal qiymati 1 000 mln so'm bo'lgan korporativ obligatsiya mavjud ($EAD = 1\,000$ mln so'm). Bazaviy defolt ehtimoli $PD_0 = 4$ foiz, defolt sodir bo'lganda zarar ulushi $LGD = 45$ foiz. Joriy makroiqtisodiy vaziyatni hisobga oluvchi tuzatish koeffitsiyenti $K_m = 1,25$ deb qabul qilinsa, tuzatilgan defolt ehtimoli $PD_a = 4\% \times 1,25 = 5\%$. Shunga ko'ra, ECL zaxirasi quyidagicha aniqlanadi: $ECL = 0,05 \times 0,45 \times 1\,000 = 22,5$ mln so'm. Demak, makroiqtisodiy tuzatishni hisobga olgan holda zaxira 22,5 mln so'mni tashkil etadi, bu tuzatishsiz holatdagi (18 mln so'm) 4,5 mln so'mga yuqori. Bu esa milliy sharoitdagi qo'shimcha risk omillarini aks ettiradi.

Moliyaviy investitsiyaning kredit riski o'zgarishi natijasida ECL zaxirasi qanday o'zgarishini ko'rsatish uchun yuqoridagi obligatsiya misolida uch bosqich bo'yicha zaxira hisob-kitobi keltiriladi (4-jadval).

4-jadval
Uch bosqich bo'yicha ECL zaxirasini hisoblash namunasi (obligatsiya misolida)⁴

Bosqich	PD_a (tuzatilgan)	LGD	EAD, mln so'm	ECL zaxirasi, mln so'm
1-bosqich (12 oylik)	5%	45%	1 000	22,5
2-bosqich (lifetime)	18%	45%	1 000	81,0
3-bosqich (defolt)	100%	55%	1 000	550,0

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, moliyaviy investitsiyaning kredit riski oshib, u yuqori bosqichga o'tishi bilan ECL zaxirasi keskin oshadi. 1-bosqichda 12 oylik zarar (22,5 mln so'm) hisoblansa, 2-bosqichda butun muddat davomidagi zarar (81 mln so'm), 3-bosqichda esa defolt holati uchun eng yuqori zaxira (550 mln so'm) tan olinadi. Bunda defolt holatida LGD ko'rsatkichi ham oshishi (45 foizdan 55 foizga) ehtimoli hisobga olingan. Ushbu yondashuv zaxirani real risk darajasiga izchil muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobida aks ettirish. Hisoblangan ECL zaxirasi buxgalteriya hisobida qadrsizlanish xarajati sifatida tan olinadi va moliyaviy investitsiyalar bo'yicha zaxira hisobvarag'ida aks ettiriladi: debet 9620 «Moliyaviy investitsiyalar qadrsizlanishi xarajatlari» — kredit 0619 (5819) «Moliyaviy investitsiyalar qadrsizlanishi zaxirasi». Zaxira kontr-aktiv sifatida moliyaviy investitsiyaning balansli qiymatini kamaytiradi va balansda sof qiymat aks ettiriladi. Keyingi hisobot davrlarida kredit riski o'zgarganda zaxira tuzatiladi: risk oshsa, zaxira oshiriladi (debet 9620 — kredit 0619), risk kamaysa, zaxira qisman tiklanadi (debet 0619 — kredit 9520).

Taklif etilayotgan metodikaning amaliy tatbiqi «O'zbektelekom» AK va «O'zbekiston pochta» AJ moliyaviy investitsiyalari misolida ko'rib chiqildi. Ushbu subyektlarning davlat va korporativ obligatsiyalari bo'yicha ECL zaxirasini makroiqtisodiy omillarni hisobga olgan holda hisoblash aktivlarning real qiymatini to'g'riroq aks ettirish hamda kredit riskini o'z vaqtida tan olish imkonini berdi. Bu esa moliyaviy hisobotning ishonchligini oshirishga xizmat qildi.

³ Manba: muallif ishlanmasi.

⁴ Manba: muallif hisob-kitoblari (shartli ma'lumotlar asosida).



Taklif etilayotgan metodikaning asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, u moliyaviy investitsiyalarning qadrsizlanishini riskning o'sish dinamikasiga muvofiq bosqichma-bosqich aks ettiradi; ikkinchidan, ECL zaxirasi O'zbekistonning makroiqtisodiy sharoitini hisobga olgan holda aniqlanadi; uchinchidan, metodika moliyaviy hisobotni MHXS 9 talablariga to'liq muvofiqlashtiradi. Shu bilan birga, metodikani amaliyotga joriy etish subyektlardan kredit riski bo'yicha ishonchli statistik baza yaratish va makroiqtisodiy prognozlardan foydalanish qobiliyatini talab qiladi.

Metodikani samarali qo'llash uchun subyektlarda moliyaviy investitsiyalar bo'yicha analitik hisobni yuritish, har bir investitsiya obyekti kesimida kredit riski bosqichini va ECL parametrlarini qayd etish zarur. Bu ma'lumotlarni tizimli yig'ish ECL zaxirasini izchil hisoblash va uni hisobot davrlari bo'yicha yangilab borish imkonini beradi. Zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish ushbu jarayonni avtomatlashtirish va xatoliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Audit ahamiyati. Taklif etilayotgan metodika audit nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Auditor ECL zaxirasining asosligini tekshirishda qo'llanilgan PD, LGD va EAD parametrlari hamda makroiqtisodiy tuzatish koeffitsiyentining to'g'riligini baholaydi. Uch bosqichli model auditorga moliyaviy investitsiyalarni kredit riski bosqichlari kesimida tekshirish va zaxiraning yetarililigini baholash imkonini beradi. Bu auditorlik xavfini kamaytiradi va audit sifatini oshiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ECL zaxirasini baholash sezilarli subyektiv mulohazani (judgement) talab qiladi, chunki u kelajakdagi hodisalarga oid prognozlarga asoslanadi. Shu bois auditor zaxirani tekshirishda subyekt tomonidan qo'llanilgan taxminlar (PD, LGD, makroiqtisodiy ssenariylar)ning asosligi va izchilligini, shuningdek, ular tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanganligini alohida diqqat bilan baholashi lozim. Taklif etilayotgan metodikaning shaffofligi va parametrlarning aniq belgilanishi ushbu tekshiruvni osonlashtiradi hamda auditorlik dalillarining ishonchligini oshiradi.

Me'yoriy-huquqiy ahamiyati. Taklif etilayotgan metodikani amaliyotga keng joriy etish uchun uni tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlash maqsadga muvofiq. Xususan, moliyaviy investitsiyalarning qadrsizlanishini ECL modeli asosida tan olish tartibini milliy buxgalteriya hisobi standartlarida yoki sohaviy uslubiy tavsiyalarda aks ettirish zarur. Bu xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan metodikani izchil qo'llashni va moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

Birinchidan, amaldagi audit amaliyotida moliyaviy investitsiyalar auditini uchun ixtisoslashgan metodika va audit risklarini maqsadli baholash tizimi yetishmasligi asoslandi. Moliyaviy investitsiyalarning yuqori xos riskka ega ekani ularning auditida maxsus yondashuv zarurligini belgilaydi.

Ikkinchidan, moliyaviy investitsiyalar auditini riskini izchil baholash imkonini beruvchi besh bosqichli model ishlab chiqildi. Model subyekt muhitini o'rganish, xos va nazorat risklarini guruhlar kesimida baholash, analitik protseduralar orqali aniqlash riskini belgilash hamda audit riskini umumlashtirishni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, analitik audit protseduralarining ixtisoslashgan matritsasi ishlab chiqildi. Matritsa auditorlik tasdiqlari va moliyaviy investitsiyalar guruhlar kesimida mos protseduralarni belgilab, audit dasturini ixtisoslashtiradi.

To'rtinchidan, taklif etilayotgan metodikani amaliyotga joriy etish auditorlik xavfini kamaytirish, mehnat va vaqt sarfini qisqartirish hamda audit sifatini oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy investitsiyalar auditini o'tkazish metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif etilgan besh bosqichli model va analitik protseduralar matritsasi auditorlik tashkilotlari uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi hamda moliyaviy investitsiyalar auditini sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. IFRS Foundation. IFRS 9 Financial Instruments. — London: IFRS Foundation, 2014 (keyingi o'zgartirishlar bilan). — IFRS Foundation rasmiy veb-sayti (murojaat qilingan sana: 21.07.2026).
2. KPMG International Standards Group. Insights into IFRS: KPMG's Practical Guide to IFRS Accounting Standards. 19th ed., 2022/23. — London: KPMG IFRG Limited, 2022.
3. Deloitte. A Closer Look: Applying the Expected Credit Loss Model to Trade Receivables Using a Provision Matrix. — London: Deloitte Touche Tohmatsu Limited, 2018.
4. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. 3rd ed. — Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2012. — 992 p. — ISBN 978-1-118-01152-2.



5. Bodie Z., Kane A., Marcus A. J. Investments. 12th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2021. — ISBN 978-1-260-01383-2.
6. Шеремет А. Д., Суйц В. П. Аудит: учебник. 7-е изд., перераб. и доп. — Москва: ИНФРА-М, 2021. — 375 с. — DOI: 10.12737/25135. — ISBN 978-5-16-012528-2.
7. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2016-yil 13-aprel, O'RQ-404-son. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, Lex.uz, hujjat № 2931253 (murojaat qilingan sana: 21.07.2026). <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi, 2025-yil I chorak. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025 (murojaat qilingan sana: 21.07.2026).
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2025-yil yanvar-dekabr). — Toshkent, 2026 (murojaat qilingan sana: 21.07.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>